

## **Toshkent davlat yuridik universitetining jamoatchilikka ochiq axboroti to‘g‘risida nizam**

Toshkent davlat yuridik universitetining jamoatchilikka ochiq axboroti to‘g‘risidagi nizam (keyingi o‘rinlarda □ nizam) o‘zbekiston Respublikasining ta‘limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta‘minlash haqidagi nizamga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **I bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu nizam universitetda jamoatchilikka ochiq axborotni yaratish, tasdiqlash, monitoring qilish va auditdan o‘tkazishga doir jarayonlarni tartibga soladi.

2. Nizomning maqsadi universitet faoliyatiga oid axborotni e‘lon qilish bo‘yicha ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish va ularning samarali ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashdan iborat

3. Mazkur nizam O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan oliy ta‘lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga qo‘yiladigan talablarning samarali bajarilishini hamda doimiy muvofiqlik nazoratini, shu jumladan jamoatchilikka ochiq axborot auditi orqali ta‘minlashni nazarda tutadi.

4. Mazkur nizamda jamoatchilikka ochiq axborot deganda elektron yoki bosma shaklda e‘lon qilinadigan ta‘lim dasturlari profillari, xizmatlar, universitet strategiyasi hamda nizomlariga oid ma‘lumotlar tushuniladi. Jamoatchilikka ochiq axborotlar to‘liq ro‘yxati mazkur nizamning 2-ilovasida keltiriladi.

5. Universitet aniq va ishonchli axborotni e‘lon qilishga sodiq bo‘lib, ichki va tashqi manfaatdor tomonlarga universitet faoliyati to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur hosil qilish hamda asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur ma‘lumotlarni taqdim etishni maqsad qiladi.

### **II bob. Jamoatchilikka ochiq axborot prinsiplari**

6. Talabalar va tashqi manfaatdor tomonlarga e‘lon qilingan ma‘lumotlar asosida asosli xulosalar chiqarish hamda qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta‘minlash maqsadida universitet axborotni quyidagi prinsiplarga muvofiq tayyorlaydi va uni muntazam ravishda yangilab boradi:

ishonchli bo‘lgan;

ko‘zlangan maqsadga muvofiq bo‘lgan;

shaffof va ochiq bo‘lgan;

o‘z vaqtida taqdim etiladigan va yangilanadigan;

foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan.

7. Universitet qayd etilgan prinsiplarga amal qilgan holda hamda O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonun, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun hamda Yevropa oliy ta‘lim makonida sifatni ta‘minlash

bo'yicha standartlar va yo'riqnomalarida nazarda tutilgan sifat standartlari talablariga muvofiq tarzda axborotni taqdim etadi.

8. Jamoatchilikka ochiq axborotni yaratish va baholash uchun mas'ul tarkibiy bo'linmalar ro'yxati mazkur nizomning 1-ilovasida keltiriladi.

Tarkibiy bo'linmalar axborotni Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limiga o'zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etishi shart.

Tarkibiy bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan axborotning to'g'riligi, ishonchliligi va haqqoniyligi uchun tegishli tarkibiy bo'linma rahbari javobgar hisoblanadi.

Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi taqdim etiladigan axborotning til normalari va adabiy me'yorlarga muvofiqligi uchun mas'ul hisoblanadi hamda ushbu maqsadlarda tashqi mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

### **III bob. Jamoatchilikka ochiq axborotdan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash**

9. Barcha axborot shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ularning so'roviga ko'ra foydalanish uchun qulay (moslashtirilgan) formatlarda taqdim etiladi.

10. Axborotni muqobil formatlarda taqdim etish bo'yicha murojaat belgilangan tartibda Universitet Devonxonasiga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

### **IV bob. Maxsus standartlar**

11. Marketing maqsadlariga qaratilgan hamda jamoatchilikka e'lon qilinadigan har qanday hujjat (material) Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi va ma'qullanishi lozim.

12. Tegishli axborot yaratuvchilari, xususan, nizomlar va tartib-taomillarni ishlab chiquvchilar, maqsadga muvofiq bo'lgan hollarda axborot manbaida amaldagi qonunchilik hamda vakolatli organlarga havola keltirilishini ta'minlashlari kerak.

13. Toshkent davlat yuridik universitetining Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi axborotlar universitet standartlariga muvofiq e'lon qilinishini ta'minlash uchun mas'uldir. Axborotni yaratuvchilar esa mazkur standartlar bilan tanishgan bo'lishlari hamda ularga rioya qilishlari shart.

14. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi mazkur nizom va boshqa hujjatlar orqali standartlarning mavjudligi va xodimlar ular bilan tanishish imkoniyatini ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi.

15. Jamoatchilikka e'lon qilinadigan barcha axborot Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi bilan kelishilishi lozim.

16. Universitet logotipi (va boshqa belgilari) faqat universitet standartlariga rioya etilgan holda va brend yo'riqnomasiga muvofiq holda ishlatilishi mumkin.

17. Universitet xodimlari ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalardan foydalanishda universitetning sha'ni, ishchanlik obro'si hamda manfaatlariga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasliklari shart. Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalar orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiya universitetning institutsional pozitsiyasini himoya qilgan holda professional darajada olib borilishi shart. Universitet xodimlari

shaxsiy ijtimoiy tarmoq akkauntlaridan foydalanganda universitetning rasmiy munosabatini ifodalayotgandek taassurot uygʻotmasliklari lozim.

## **V bob. Universitet va hamkor tashkilotlar veb-sayti**

18. Universitetning veb-sayti Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boʻlimi tomonidan Elektron universitet boʻlimi bilan hamkorlikda yaratiladi hamda doimiy yangilab boriladi.

19. Universitet hamkor oliy taʼlim tashkilotlarining veb-saytlarida hamkorlikdagi loyihalar, shu jumladan, qoʻshma taʼlim dasturlari doirasida universitet haqida beriladigan axborotning toʻgʻriligi uchun masʼul hisoblanadi.

20. Yangi hamkorlik boshlanishida hamkor tashkilot tomonidan eʼlon qilinadigan universitet haqidagi dastlabki maʼlumotlar Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boʻlimi bilan kelishilgan holda Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi. Maʼlumotlarning muntazam aniqligi va ochiqligi doimiy tarzda jamoatchilikka ochiq axborot auditi jarayonida koʻrib chiqiladi.

21. Universitet veb-saytida joylashtirilgan rasm, video va boshqa audiovizual materiallarga nisbatan mualliflik huquqi, agar ular xodim tomonidan xizmat vazifalari doirasida yaratilgan boʻlsa, universitetga tegishli hisoblanadi. Boshqa hollarda bunday materiallardan foydalanish faqat tegishli ruxsat asosida amalga oshiriladi hamda muallif koʻrsatilishi shart.

## **VI bob. Ommaviy axborot vositalari bilan muloqot**

22. Universitet nomidan ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish, ularga murojaat qilish yoki ularning soʻrovlariga javob berish faqat tegishli vakolatga ega shaxslar tomonidan mazkur nizomning 24-bandi qoidalarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Boshqa xodimlar ommaviy axborot vositalari bilan faqat oʻzining akademik faoliyati doirasida va akademik erkinlik prinsiplariga muvofiq ravishda shaxsiy fikr bildirishi mumkin. Universitet nomidan amalga oshiriladigan barcha rasmiy murojaatlar Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boʻlimi orqali amalga oshiriladi.

23. Universitet talabalari tomonidan ijtimoiy tarmoqlar va boshqa media platformalarida oʻzini tutish masalalari Universitetning Odob-axloq kodeksi hamda ichki tartib-qoidalari bilan tartibga solinadi. Talabalar mazkur platformalardan foydalanishda Universitetning shaʼni, ishchanlik obroʻsi va qonuniy manfaatlariga putur yetkazishi mumkin boʻlgan xatti-harakatlarga yoʻl qoʻymasliklari shart.

24. Universitet nomidan press-revizlar, rasmiy bayonotlar va munosabatlar belgilangan tartibda rektor hamda Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boʻlimi tomonidan tayyorlanadi, tasdiqlanadi va eʼlon qilinadi. Universitet nomidan rasmiy bayonot berish yoki munosabat bildirish vakolati rektorga tegishli hisoblanadi. Mazkur vakolat rektorning topshirigʻiga asosan Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boʻlimi boshligʻi yoki boshqa xodimga beriladi.

## **VII bob. Jamoatchilikka ochiq axborot monitoringi**

25. Toshkent davlat yuridik universistetida sifatni taʼminlash haqidagi nizom talablariga muvofiq universitetda har yili jamoatchilikka ochiq axborot auditi oʻtkaziladi. Jamoatchilikka

ochiq axborot auditini o'tkazishdan maqsad universitet bilan bog'liq jamoatchilikka taqdim etilayotgan barcha axborotning to'liqligi, to'g'riligi va foydalanish uchun qulayligini ta'minlashdan iborat.

26. Jamoatchilikka ochiq axborot auditini har yili avgust oyining uchinchi haftasida o'tkaziladi.

Jamoatchilikka ochiq axborot auditini o'tkazish uchun rektor buyrug'i bilan Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bo'limi boshlig'i rahbarlik qiladigan ishchi guruh tuziladi.

27. Jamoatchilikka ochiq axborot auditini amalga oshiruvchi ishchi guruh tomonidan mazkur nizomning 2-ilovasida keltirilgan Toshkent davlat yuridik univertitetining jamoatchilikka ochiq axborot auditini bo'yicha tekshiruv ro'yxati to'ldiriladi.

Mazkur ro'yxat asosida jamoatchilikka taqdim etiladigan axborotning to'g'riligi, ko'zlangan maqsadga muvofiqligi, yangilangani va foydalanish uchun qulayligi tekshiriladi.

### **VIII bob. Yakunlovchi qoidalar**

28. Mazkur nizom va uning ijrosi bilan bog'liq masalalar yuzasidan Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limiga murojaat qilish mumkin.

29. Nizom kamida har uch yilda bir marta ko'rib chiqiladi va zarur hollarda unga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritiladi.

**Jamoatchilikka ochiq axborotni yaratish va baholash uchun mas'ul tarkibiy bo'linmalar  
va ularning vazifalari**

<b>Vazifalar</b>	<b>Xodim / Tarkibiy bo'linma/kollegial organ</b>
Jamoatchilikka ochiq axborotning Toshkent davlat yuridik universiteti Jamoatchilikka ochiq axborot to'g'risidagi nizomga va qonunchilik talablariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash.	Universitet Kengashi
Brend bo'yicha ko'rsatmalarni belgilash va ularga rioya etilishini nazorat qilish.	Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi
Jamoatchilikka ochiq axborotlar uchun qo'yilgan talablarga umumiy muvofiqlikni ta'minlash uchun jamoatchilikka ochiq axborot auditorlarini o'tkazish.	Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi
Universitet nizomlari, tartib-qoidalari va strategiyalarini ishlab chiqish hamda tayyorlash.	Tegishli hujjatning xususiyatiga qarab yoki maxsus nizom, tartib-qoida va strategiyalarda nazarda tutilgan tartibda.
<b>Quyidagilarni yaratish va qayta ko'rib chiqish:</b>	
TDYU veb-sayti.	Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi
Ta'lim dasturi profillari	Fakultet akademik departamentlari Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
Sillabuslar	Fakultet akademik departamentlari
Talabalar qo'llanmasi	Yoshlar masalalari va sportni ommalashtirish boshqarmasi O'quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)
Tadqiqotchilar qo'llanmasi	Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi
Marketing maqsadlariga qaratilgan muloqot va materillar	Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi
Ijtimoiy tarmoq kanallaria (shu jumladan Telegram) orqali muloqot qilish	Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi

**Toshkent davlat yuridik univristetining jamoatchilikka ochiq axborot auditi bo'yicha  
tekshiruv ro'yxati**

Axborot turi	Tekshiruv bandi	Tekshiruv amalga oshirilgan sana (tegishli hollarda veb-havolani ham kiriting)
<b>Institutsional umumiy ma'lumotlar Boshqaruv va rahbariyat</b>	Veb-saytda davlat ramzlari, institutsional logotip va dinamik vizual elementlardan to'g'ri foydalanilgan.	
	Universitet ustavi e'lon qilingan.	
	Missiya, strategik qarash va qadriyatlar aniq bayon etilgan hamda amaldagi holatga mos.	
	Universitetning tarixi va umumiy ma'lumotlari mavjud.	
	Amalda mavjud Institutsional va dasturiy akkreditatsiya holati ko'rsatilgan.	
	Strategik rejalar va institutsional maqsadlar e'lon qilingan.	
	Veb-saytdagi yangiliklar bo'limi muntazam yangilanib boriladi hamda TDYUdagi barcha muhim yangiliklar, jumladan rasmiy bayonotlar, ochiq ma'ruzalar, uchrashuvlar, ilmiy va innovatsion faoliyatga oid ma'lumotlarni qamrab oladi.	
	Tashkiliy tuzilma, jumladan TDYUning barcha tarkibiy bo'linmalari haqida ma'lumot taqdim etilgan.	
	Rahbariyatning F.I.Sh, lavozimlari va tarjimai holi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.	
	Kuzatuv kengashi a'zolari hamda yig'ilish bayonnomalari bilan tanishish imkoniyati mavjud. Bunda ochiqlik va shaffoflik tamoyillaridan kelib chiqib, tegishli ma'lumotlar taqdim etiladi, biroq ilovalar va tasdiqlangan hujjatlarni to'liq joylashtirish masalasi selektiv yondashuv asosida hal etiladi. Xususan, moliyaviy masalalarga oid yoki cheklangan foydalanishga ega bo'lgan qismlar oshkor etiladi.	

	Rahbariyat yoki boshqaruv masalalari bo'yicha murojaatlar uchun aniq aloqa ma'lumotlari joylashtirilgan.	
<b>Ta'lim dasturlari</b>	Ta'lim dasturlari (darajalar, qo'shma dasturlar, sertifikatlar, asosiy va qo'shimcha mutaxassisliklar)ning to'liq ro'yxati amaldagi holatda taqdim etilgan.	
	Ta'lim dasturlari profillari va sillabuslar (qisqacha versiyalari) mavjud hamda ularni topish oson.	
	Ta'lim dasturlarining akkreditatsiya ma'lumotlari (agar mavjud bo'lsa) keltirilgan.	
<b>Hamkor ta'lim muassasalari</b>	Hamkor ta'lim muassasalari saytlarida TDYU haqidagi ma'lumotlarda hamkorlikning mohiyati aniq yoritilgan.	
	Hamkor ta'lim muassasalari tomonidan qo'llanilgan brending ta'lim muassasasining brend yo'riqnomalariga muvofiq.	
<b>Qabul va ro'yxatdan o'tish</b>	Qabul mezonlari va muddatlari aniq ko'rsatilgan.	
	Ariza topshirish jarayoni batafsil va shaffof yoritilgan.	
	Kreditlarni ko'chirish siyosati va akademik tan olish bo'yicha ma'lumotlar mavjud.	
<b>Kontrakt to'lovi, yig'imlar va moliyaviy yordam</b>	Kontrakt to'lovi va yig'imlar jadvali aniq holatda keltirilgan.	
	Grant va stipendiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan ariza topshirish talablari va muddatlari mavjud	
	To'lovlarni qaytarish siyosati va tartib-taomillari bilan tanishish imkoniyati mavjud.	
<b>Talabalar natijalari</b>	Bitiruv va o'qishni davom ettirish ko'rsatkichlari e'lon qilingan.	
	Bitiruvchilarning bandlik darajasi va mehnat faoliyati natijalari haqida ma'lumotlar e'lon qilingan.	
	Bitiruvchilarning qoniqish darajasi, fikr-mulohazalari va/yoki ishtirok so'rovlari natijalari e'lon qilingan.	
<b>Talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari</b>	Akademik maslahat va tyutorlik xizmatlari tavsiflangan.	
	Psixologik maslahat va ruhiy salomatlikka oid resurslar keltirilgan.	
	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xizmatlar va tegishli ma'lumotlar mavjud.	

	Karyera xizmatlari va amaliyotga ko‘maklashish imkoniyatlari yoritilgan.	
	Talabalar va doktorantlar uchun qo‘llanmalar e‘lon qilingan hamda ular bilan tanishish oson.	
	Shikoyat va apellyatsiya tartib-taomillari e‘lon qilingan hamda ular bilan tanishish oson.	
<b>Universitet kampusidagi hayot</b>	Turar joy variantlari va ularning narxlari batafsil ko‘rsatilgan.	
	Talabalar tashkilotlari va darsdan tashqari imkoniyatlar haqida ma‘lumot berilgan.	
	Kampus xavfsizligi siyosati va resurslari jamoatchilikka ochiq.	
<b>Institutsional samaradorlik va hisobdorlik</b>	Yillik hisobotlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari e‘lon qilingan.	
	Tenglik natijalari bo‘yicha hisobotlar yoki baholash natijalari bilan tanishish imkoniyati mavjud.	
	Tashqi audit yoki ko‘rib chiqish hisobotlari, ularning qisqacha mazmuni hamda chora-tadbirlar rejalari bilan tanishish imkoniyati mavjud.	
	Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini olish mexanizmlari (masalan, so‘rovnomalar, aloqa shakllari) mavjudligi yaqqol ko‘rinadi.	
<b>Institutsional samaradorlik va hisobdorlik</b>	Maxfiylik siyosati va ma‘lumotlardan foydalanish bo‘yicha eslatmalar mavjud.	
	Intellectual mulk va mualliflik huquqi bo‘yicha qoidalar oshkor qilingan.	
	Ma‘lumotlarni qidirish oson va ularni intuitiv tarzda topish mumkin.	
	Aloqa vositalari (elektron pochta, telefon, manzil)ni topish oson.	
	Hujjatlar (PDF fayllar, shakllar) ochiq va o‘qish uchun qulay.	